

SOLIQ NAZORATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19015056>

Nizomxonov Elbekxon Erkinxon o'g'li

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Bank-molya kafedrası Katta o'qituvchi

Bank-molya akademiya mustaqil tadqiqotchi

Annotasiya

Mazkur maqolada 2017-2025 yillarda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi va O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi doirasida, shuningdek, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi amaliyotga joriy etilgani yuzasidan kodeksda nazarda tutilgan soliq nazoratini tashkil etish bo'yicha belgilangan qoidalarni amaliyotda samarali ishlashini yo'lga qo'yish maqsadlariga yo'naltirilgan soliq organlari faoliyatini yanada takomillashtirish uchun soliq to'lovchilarni segmentlash asosida nazoratning simsiz, masofaviy usullarini yo'lga qo'yish, soliq ma'muriyatchiligi xarajatlarini kamaytirish va soliq nazorati sifatini oshirish, shuningdek, uni avtomatlashtirish maqsadida tizimga zamonaviy biznes-tahlillar modellarini (Business Intellegence) joriy etish, soliq sohasida huquqbuzarliklar soni kamayishiga xizmat qiladigan samarali va ta'sirchan soliq nazoratini yo'lga qo'yish, shu bilan birga olib borilayotgan soliq nazorati tadbirlarining samarali va ta'sirchanligini oshirish, soliq nazoratini tashkil etishda shaffoflikni ta'minlash, korrupsiya omillarini keskin kamaytirish bilan bog'liq soliq organlarining ijobiy imijini shakllantirishga har tomonlama xizmat qiladigan jarayonlar tizimli ravishda tadqiq etilgan hamda soliq nazoratini yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar

Harakatlar strategiyasi, konsepsiya, Soliq kodeksi, soliq ma'muriyatchiligi, nazorat, nazorat qiluvchi organlar, soliq nazorati, soliq tekshiruvlari, kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi, soliq auditi, soliq monitoringi, soliq to'lovchilarni segmentlash, "insofli", "vijdonli", "halol" va "qonunga itoatkor" soliq to'lovchilar, jamoatchilik nazorati, soliq xavfini baholash.

1. Kirish.

Davlat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan soliq tizimining samarali faoliyat yuritishiga bog'liq. Soliq tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lgan soliq nazorati soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash, soliq tushumlarini oshirish hamda yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda iqtisodiyotning globallasuvi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hamda biznes jarayonlarining murakkablashuvi soliq nazoratini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Shu sababli soliq nazoratining nazariy asoslarini o'rganish va amaliyotdagi muammolarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

"Soliq tizimi iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga erishishda muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi". Ta'kidlash joizki, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallasuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotganini ko'rsatmoqda, shu sababli davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni bugun zamonning o'zi taqozo etmoqda. Aytishimiz mumkinki, soliq tizimini tanqidiy o'rganishlar natijalari soliq sohasida ham bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida axborot almashish mexanizmlarining etarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi, elektron soliq ma'muriyatchiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublarining takomillashmaganligi, o'tkaziladigan nazorat tadbirlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va insofli tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatiga aralashishlarni kamaytiruvchi nazorat faoliyatini amalga oshirishda xavf-xatarlarni tahlil qilish va boshqarishning aniq tizimi yo'qligi soliq tizimini tanqidiy o'rganish natijalari bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda ham alohida ta'kidlab o'tilganligi bejiz emas, albatta (Farmoyish, 2018).

Shu nuqtai-nazardan soliq tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi amaliyotga joriy etilgani yuzasidan kodeksda nazarda tutilgan soliq nazoratini tashkil etish bo'yicha belgilangan qoidalarni amaliyotda samarali ishlashini yo'lga qo'yish, shuningdek soliq organlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadlarini o'zida mujassam etgan holda soliq ma'muriyatchiligi xarajatlarini kamaytirish, shuningdek, uni avtomatlashtirish maqsadida tizimga zamonaviy biznes-tahlillar modellarini (Business Intelligence) joriy etish, soliq sohasida huquqbuzarliklar soni kamayishiga xizmat qiladigan, shu bilan birga olib borilayotgan soliq nazorati

tadbirlarining samarali va ta'sirchanligi hamda uning sifatini oshirish, soliq nazoratini tashkil etishda shaffoflikni ta'minlash, korrupsion omillarni keskin kamaytirish bilan bog'liq soliq organlarining ijobiy imijini shakllantirishga har tomonlama xizmat qiladigan jarayonlarni tizimli ravishda tadqiq etish, shu bilan birga soliq nazoratini yanada takomillashtirish bilan bog'liq jarayonlarni tanqidiy o'rganib xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan foydalangan holda takomillashtirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

2. Adabiyotlar sharhi.

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini to'sqinliksiz amalga oshirilishini ta'minlash, biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va mamlakatimizning investisiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchillik bilan olib borilmoqda.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga noqonuniy aralashishlarni oldini olish, nazorat va tekshirishlarni tartibga solish, jarayonni ochiq va shaffofligi, samarali va ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida bir qator tizimli ishlarni amalga oshirishga qaratilgan g'oyalar ilgari surilmoqda va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan holda amaliyotga joriy etilmoqda, jumladan quyidagilar shular jumlasidandir:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan 2018 yil 1 sentyabrdan boshlab tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan rejali tekshiruvlar hamda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida o'tkaziladigan nazorat tartibidagi tekshiruvlar bekor qilindi(Farmon, 2018);

Yaqin vaqt ichida muqobil tekshiruvlar va rejadan tashqari tekshiruvlarning barcha turlari bekor qilindi(Farmon, 2018) ;

Soliq ma'muriyatchiligi va soliqqa tortishning zamonaviy usullarini, soliqlarning to'liq yig'iluvchanligi va byudjetga o'z vaqtida tushishi ustidan samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali soliq-byudjet siyosatini yanada takomillashtirish, byudjet jarayoni shaffofligi darajasini oshirish maqsadida soliq nazoratining xorijda keng qo'llanilayotgan ilg'or va sinalgan shakl va usullarini joriy etishni hisobga olgan, jumladan, xalqaro ekspert va maslahatchilarni jalb qilgan holda soliq ma'muriyatchiligi mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha tizimli ishlar tashkil qilindi(Farmoyish, 2018);

Soliq nazoratining eskirgan uslub va prinsiplariga asoslangan davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etish mazkur organlar oldiga qo'yilgan yangi vazifalarni hal qilish, jumladan, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliqlar yig'iluvchanligining oshirilishini ta'minlash imkonini bermayotgani, o'z echimini

topmagan sezilarli muammolarning mavjudligi ushbu holatni yanada og'irlashtirayotgani va soliq tizimining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani inobatga olingan holda mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligi tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlari belgilab berildi(Qaror, 2018);

Nazorat qiluvchi organlar va insofli tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida ishonchli hamkorlikni o'rnatishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining qabul qilinganligi amaldagi tekshiruvlar tizimini, davlat nazoratining boshqa turlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etdi(Farmon, 2018);

Yurtimizda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan o'zaro hamkorligining simsiz usullari ro'yxatini kengaytirgan holda soliq nazorati shakllarini, shuningdek soliq organlarining faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida soliq ma'muriyatchiligi xarajatlarini kamaytirish va soliq nazorati sifatini oshirish, shun bilan bir qatorda, uni avtomatlashtirish maqsadida tizimga zamonaviy biznes-tahlillar modellarini (Business Intellegence) joriy etish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan(Qaror, 2019);

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi doirasida soliq ma'muriyatchiligi va soliq nazoratining mutlaqo yangi tizimi amaliyotga joriy etildi(Kodeks, 2025).

Mazkur chora-tadbirlar yurtimizda ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishga va O'zbekiston Respublikasining xalqaro miqyosdagi reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan ahamiyatlidir.

Shu bilan birga aytish joizki, tadbirkorlik faoliyati sohasida bartaraf etilishi maqsadga muvofiq bo'lgan ayrim muammolar ham mavjud bo'lib, ularning hal etilishi esa biznesni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish, mamlakatimizga xorijiy investisiyalarni jalb qilish hamda tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatli himoyasini ta'minlash imkonini beradi(Farmon, 2018).

Ta'kidlashimiz mumkinki, biznesni rivojlantirishdagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, tadbirkorlik sub'ektlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini yanada kuchaytirish, mamlakatimizda investisiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va qonuniy manfaatlari buzilishiga olib kelayotgan davlat organlarining samarasiz va ortiqcha nazorat funksiyalari bekor qilinmoqda va bu orqali yurtimizning investisiyaviy jozibadorligini yaxshilashga erishilmoqda.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzalari, Murojaatnomalari, shuningdek qaror, farmon va farmoyishlari o'rganildi. Bundan tashqari Iqtisod va moliya vazirligi tomonidan Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan hamkorlikda soliq nazorati va tekshiruvlar sohasida ilg'or xalqaro tajribani qo'llash bo'yicha tashkil etilgan amaliy seminarlar jarayonida xalqaro ekspertlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarning mazmun-mohiyati atroflicha o'rganildi.

Shu bilan bir qatorda, ushbu yo'nalishda mustaqil yondashuvlarga tayangan xolda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, tadbirkorlik sub'ektlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini yanada kuchaytirish, mamlakatimizda investisiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hamda yangi tahrirdagi Soliq kodeksining amaliyotga joriy etilganligi natijasida soliq nazorati va tekshiruvlarni o'tkazishda shaffoflikni ta'minlash, nazorat va tekshiruvlarning samarali hamda ta'sirchan tashkil etilishini yo'lga qo'yish, soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan, soliq solish ob'ektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, soliq ma'muriyatchiligi va nazoratining yaratilgan mutlaqo yangi tizimi doirasida, korrupsiyaviy omillarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha oldini olish choralari qo'llash, tekshiruvdan oldingi tahlil va masofaviy nazorat-tahlil ishlarini amalga oshirish uchun ma'lumotlarni to'liq yig'ish va qayta ishlashni ta'minlaydigan zamonaviy, ilg'or axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish choralari kuchaytirishga, milliy qonunchiligimizni yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ma'lumki, yurtimizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida mamlakatimiz aholisi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama chuqur va tanqidiy o'rganish, amaldagi qonunchilik normalari, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish natijasida ishlab chiqilgan hamda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha vatanimizni har tomonlama taraqqiy etishiga xizmat qilishni nazarda tutadigan Harakatlar strategiyasi umumxalq muhokamalari asosida ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan. Shu bilan birga, Harakatlar strategiyasi doirasida uni samarali amalga oshirish bo'yicha har yili Davlat dasturlari ham ishlab chiqilib ularning ijrosini amalda ta'minlashga

qaratilgan samarali ishlar izchillik bilan yo'lga qo'yilayotgani barchamizga ma'lumdir. So'zimizning yaqqol isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilganligi va ayni paytda bu o'zining ijobiy natijasini berayotganligini aytish mumkindir(Farmon,2018).

Shuningdek, soliq nazorati va tekshiruvlar sohasida ilg'or xalqaro tajribani qo'llash bo'yicha qonunchilik normalariga zarur o'zgartirish hamda qo'shimchalarni kiritish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni(Farmon,2018) va "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori(Qaror, 2019) muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi vakolatli organlarning soliq to'lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishga doir faoliyati soliq nazoratini ifoda etishini nazarda tutadi. Soliq organlari soliq nazoratini quyidagi shakllarda amalga oshirishlari mumkin:

- ✚ soliq tekshiruvlari;
- ✚ soliq monitoringi.

Shuningdek, bojxona organlari tovarlarning Respublikamiz bojxona chegarasi orqali olib o'tilishi munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlarga nisbatan o'z vakolatlari doirasida Soliq kodeksiga va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq nazoratini amalga oshirishi mumkinligi belgilangan.

Soliq organlari soliq tekshiruvlarining quyidagi turlarini o'tkazishi ko'zda tutiladi:

- ✚ kameral soliq tekshiruvi;
- ✚ sayyor soliq tekshiruvi;
- ✚ soliq auditi.

Bugungi kunda soliq tekshiruvlari sohasida ilg'or xalqaro tajribani qo'llash bo'yicha bir qancha qonun-hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi doirasida soliq ma'muriyatchiligi va soliq nazoratining mutlaqo yangi tizimi amaliyotga joriy etildi. Soliq tekshiruvi ob'ektlarini samarali tanlab olish uchun soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etish xavflarini tahlil qilish, tekshirishlarni tayinlash tartibiga o'zgartirish kiritgan xolda tekshiruv jarayonlari inson omilisiz faqatgina "Tahlila-tahlil" dasturi asosida uchta segmentga bo'lish asosida amalga oshiriladigan bo'ldi, shuningdek Davlat soliq xizmati organlari endilikda jarimalarni profilaktik tadbir o'tkazgandan keyingina qo'llashlari mumkinligini nazarda tutuvchi tartib-qoidalar ko'zda tutilmoqda.

Xalqaro ekspertlarning e'tirof etishicha, soliq tekshiruvi qonunga bo'ysunadigan soliq to'lovchilarni qo'rqitish uchun vosita emas, aksincha tekshiruvlarning asosiy vazifasi soliq qonunchiligiga ixtiyoriy rioya qilishni rag'batlantirish ekanligi alohida ta'kidlanadi. Yurtimizda qo'llaniladigan an'anaviy yondashuvda esa qonunchilikka rioya qiluvchi soliq to'lovchilarga nisbatan ham soliq tekshiruvi o'tkazilib kelingan edi, bu esa inson resurslaridan samarasiz foydalanish hisoblanishini xalqaro tajriba e'tirof etmoqda. Shu sababli riskka yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish soliq to'lovchilarning qonunchilik talablariga rioya qilmaslik hollarini aniqlashning eng optimal usullaridan biri ekanligini inobatga olgan holda yangi tahrirdagi Soliq kodeksini ishlab chiqish jarayonida soliq tekshiruvlari bo'yicha qonunchilik normalariga tubdan o'zgartirishlar kiritilishi maqsadga muvofiq deb topildi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ayni paytda soliq organlari tomonidan inson aralashuvisiz, risk-tahlil natijalari asosida tekshiruv ob'ektlarini aniqlovchi dasturlar yaratilmoqda va eng yaxshi, samarali amaliyot sifatida e'tirof etilmoqda. Bunda kompyuterlashgan baholash tizimida statistik va nostatistik usullar, shu jumladan regressiya tahlili va ma'lumotlarni taqqoslash usullari qo'llanilishi ko'zda tutilgan. Mutaxassislar fikriga ko'ra, bunday tizimning asosiy afzalliklari quyidagilardir:

- ✚ katta ma'lumotlar bazalarini boshqarish va samarali ishlash;
- ✚ tekshiruvlarni o'tkazishda oshkoralik va shaffoflikni oshirish.

Xorijiy ekspertlarning fikriga ko'ra, bu kabi yangi yondashuv, avvalombor, "insofli", "vijdonli" "halol" va "qonunga itoatkor" soliq to'lovchilarning ishonchini mustahkamlaydi, shu bilan bir qatorda soliq tekshiruvi o'tkaziladigan shubhali soliq to'lovchilarni aniqlashda ma'muriy xarajatlarni kamaytirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida soliq monitoringining ham huquqiy asoslari ko'zda tutilgan. Unga ko'ra quyidagilar soliq monitoringining predmetidir:

- ✚ soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etish,
- ✚ o'ziga nisbatan soliq monitoringi o'tkazilayotgan yuridik shaxs tomonidan soliqlar va yig'implarni hisoblashning to'g'riligi, to'liq va o'z vaqtida to'langanligi (o'tkazib berilganligi).

Shuningdek Soliq kodeksida soliq monitoringi to'g'risidagi umumiy qoidalar, axborotga doir hamkorlik reglament, soliq monitoringini o'tkazish to'g'risidagi qaror, uni muddatidan oldin tugatish, soliq monitoringini o'tkazish tartibi, soliq organining asoslantirilgan fikri hamda o'zaro kelishuv tartib-taomili kabi tartib-qoidalar belgilangan.

O'rganishlar bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tadbirkorlik faoliyati sohasida ayrim muammolar mavjud bo'lib, ularning hal etilishi biznesni

rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish, O'zbekistonga xorijiy investisiyalarni jalb qilish hamda tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatli himoyasini ta'minlash imkonini beradi. Bir qator qonun-hujjatlarini o'rganilishi, shuningdek xususiy tahlillarimiz natijasida mazkur yo'nalishda mavjud muammolar sifatida quyidagilarni alohida aytish mumkin:

- ✚ nazorat qiluvchi organlar va insofli tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida ishonchli hamkorlikni o'rnatishga qaratilgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining qabul qilinganligi amaldagi tekshiruvlar tizimini, davlat nazoratining boshqa turlarini, shu bilan birga boshqa turdagi qonun-hujjatlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etadi;

- ✚ tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida o'tkaziladigan soliq nazorati va tekshiruvlarning tashkiliy jihatlari va tartib-taomillarini kompleks tartibga solish hamda ularning qonuniyligi monitoringini olib borishning yagona yaxlit tizimi mavjud emasligi nazorat qiluvchi organlar faoliyatining shaffofligini ta'minlash va o'tkaziladigan tekshiruvlarning asosililigini xolis baholash imkonini bermasligi mumkin;

- ✚ o'tkaziladigan tekshiruvlarning ochiqqligi, oshkoraligi va xolisligini ta'minlovchi nazorat qiluvchi organlar faoliyati ustidan mustaqil jamoatchilik nazorati tizimi joriy etilmaganligi;

- ✚ tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini har tomonlama qo'llab quvvatlash hamda ular faoliyatiga asossiz aralashuvlarga chek qo'yish, shuningdek ularning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'zda tutgan xolda, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozlari vaqtida va(yoki) turli xil favqulotda vaziyatlarda ularga qarshi kurashish hamda pandemiyalar va boshqa global xavf-xatarlar davrida makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining uzluksiz ishlashini ta'minlash, mamlakat aholisi daromadlari keskin pasayib ketishining oldini olish, yuzaga kelgan holatning iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini kamaytirish va yumshatish hamda tadbirkorlik faolligining sustlashishini oldini olish maqsadlarida tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishni to'xtatilishi(moratoriy e'lon qilinishi), yoxud tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini soliq auditidan o'tkazishni to'xtatish (jinoyat ishi doirasida va yuridik shaxs tugatilishi munosabati bilan o'tkaziladigan tekshirishlar bundan mustasno) mumkinligi Qonunlarda, jumladan Soliq kodeksida to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi normalar sifatida ko'zda tutilmaganligi;

- ✚ Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni me'yorlarini qayta ko'rib chiqish yoki yangi tahrirda qabul qilish zaruriyatining yuzaga kelganligi.

Bir qator qonun-hujjatlarini o'rganishlarimiz natijalari muhokamasi bo'yicha tahlillarimiz davomida ko'rsatib o'tilgan tadbirkorlik faoliyati sohasidagi mavjud bo'lgan ayrim muammolarning hal etilishi, qonunchilik normalariga zarur o'zgartirish va qo'shimchalarning kiritilishi biznesni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf qilish, yurtimizga chet el investisiyalarni jalb qilish hamda tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatli himoyasini ta'minlash imkonini beradi deb o'ylaymiz. Bizningcha, Soliq kodeksining yangi tahriri bilan soliq ma'muriyatchiligi va soliq nazoratining mutlaqo yangi tizimi amaliyotga joriy etilganligi bois soliq tekshiruvlarini amaliyotga to'liq va samarali tadbiriq etishni yo'lga qo'yish maqsadida kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi, soliq auditini amalga oshirish bo'yicha mazkur jarayonlarni tartibga solib turuvchi me'yoriy-huquqiy qonunosti hujjatlarini ishlab chiqishda tekshiruvlar, avvalombor qonunga bo'ysunadigan soliq to'lovchilarni qo'rqitish uchun vosita emas, aksincha soliq qonunchiligiga ixtiyoriy rioya qilishni rag'batlantirishni yo'lga qo'yishga qaratilganligi nuqtai-nazaridan ham har tomonlama puxta ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bizningcha yuqorida sanab o'tilgan mavjud ayrim muammolarning bartaraf etilishi quyidagi ijobiy natijalarga erishishga imkon berishi mumkin:

- ✚ davlat soliq xizmati organlarini soliq to'lovchilarning biznes-hamkori va maslahatchisi sifatidagi yangi imidjini yaratish orqali xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan idoraga aylantirish, har bir xodim tomonidan "Soliq xizmati-insofli soliq to'lovchilarning ishonchli hamkori" degan maqsadli vazifani so'zsiz bajarish;

- ✚ soliq ma'muriyatchiligi va nazoratining mutlaqo yangi tizimini yaratish, shuningdek, korrupsiyaviy omillarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha oldini olish choralarini qo'llash;

- ✚ tekshiruvdan oldingi tahlil va masofaviy nazorat-tahlil ishlarini amalga oshirish uchun ma'lumotlarni to'liq yig'ish va qayta ishlashni ta'minlaydigan zamonaviy, ilg'or axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish choralarini yanada kuchaytirish;

- ✚ soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlanishi, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublari joriy etilishi, soliq sohasidagi huquqbuzarliklarning sabab va shart-sharoitlari tahlil qilinishi, ularga barham berish choralari ko'rilishi;

- ✚ xalqaro tajribani chuqur o'rganish orqali soliq tizimi modernizasiya qilinishi;

- ✚ O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlari qatorida soliq nazoratining shakl va

mexanizmlarini, shu jumladan, soliq solish ob'ektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish;

✚ Makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining uzluksiz ishlashini ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish hamda tadbirkorlik faolligining sustlashishini oldini olish;

✚ Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishni to'xtatish(moratoriy e'lon qilish)ning huquqiy asoslari yanada mustahkamlash;

✚ Global xavf-xatarlar davrida makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining uzluksiz ishlashini ta'minlash, tadbirkorlik faolligining sustlashishini oldini olishga, shuningdek tekshiruvlarga moratoriy e'lon qilingan vaqtlarda ham qonunbuzar tadbirkorlarga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llash uchun muhim asosni yaratishga qaratilgan birinchi navbatdagi chora-tadbirlarni to'g'ridan to'g'ri Soliq kodeksida nazarda tutish orqali milliy qonunchiligimizni yanada mustahkamlash;

✚ Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan o'zaro hamkorligining simsiz usullari ro'yxatini kengaytirgan holda soliq nazorati shakllarini takomillashtirish, shuningdek soliq organlarining faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida soliq ma'muriyatchiligi xarajatlarini kamaytirish va soliq nazorati sifatini oshirish, shuningdek, uni avtomatlashtirish maqsadida tizimga zamonaviy biznes-tahlillar modellarini (Business Intellegence) joriy etish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

✚ Xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish.

Bu o'z navbatida mamlakatimizda biznesni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish, xorijiy investisiyalarni jalb qilish hamda tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatli himoyasini ta'minlash, shuningdek, soliq nazorati tadbirlari va tekshiruvlarni shaffof, samarali tarzda tashkil etilishini yo'lga qo'yish, shu bilan birga tekshiruvlarning ta'sirchanligini ta'minlash imkonini beradi deb o'ylaymiz.

5. Xulosa va takliflar.

Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida ko'zda tutilgan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi ishlab chiqilib joriy yildan amaliyotga tadbiq etildi. Yaqinda qabul qilingan yangi Soliq kodeksiga muvofiq, bu yildan boshlab ko'plab yangiliklar amaliyotga joriy etilmoqda. Darxaqiqat, yurtimizda tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama rivojlantirish va boy xorijiy tajribani

samarali qo'llashni ta'minlaydigan soliq tizimi shakllantirilmoqda. Shu bilan birga, soliq ma'muriyatchiligi sohasida, jumladan samarali va ta'sirchan soliq nazorati tadbirlarini yo'lga qo'yish, shuningdek soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolarning mavjudligi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarni moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta'minlashga salbiy ta'sir etmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi, albatta. Soliq nazoratini tashkil qilish mexanizmlarining mukammal emasligi, jumladan soliq tekshiruv ob'ektlari zarur tahlilsiz belgilanishi soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash va ularni barvaqt profilaktika qilish samaradorligini pasaytirayotganligi bu borada bir qancha ishlarni amalga oshirishni talab etayotganligini ko'rsatmoqda. Shu sababli yangi qabul qilinayotgan soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarda O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo'nalishlari sifatida soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish kabi masalalar nazarda tutilgan.

Bizningcha, mamlakatimizda biznesni rivojlantirishdagi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, tadbirkorlik sub'ektlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini yanada kuchaytirish, investisiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida yangi tahrirdagi Soliq kodeksining amaliyotga joriy etilishi doirasida samarali va ta'sirchan soliq nazoratini tashkil etish hamda uni muntazam ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan ilmiy hamda amaliy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni izchillik bilan davom ettirgan xolda ularni amaliyotga keng joriy etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, yurtimizda soliq ma'muriyatchiligining zamonaviy uslublarini joriy etish kabi muhim vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek yangi tahrirdagi Soliq kodeksining amaliyotga joriy etilishi doirasida samarali va ta'sirchan soliq nazoratini tashkil etish yuzasidan hamda soliq nazorati va tekshiruvlar hamda uni tashkil etishdagi xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rgangan xolda milliy qonunchiligimizga samarali tadbiq etilishini ta'minlash maqsadida quyidagi ishlarni tizimli ravishda, izchil tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

- 1). Yangi tahrirdagi Soliq kodeksining tegishli moddalarida soliq auditi, kameral va sayyor soliq tekshiruvlarini, shuningdek soliq monitoringini o'tkazish tartib-qoidalarini Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanishi ko'zda tutilgan. Bizningcha, soliq nazorati va tekshiruvlarni amaliyotga to'liq va samarali tadbiq etishni yo'lga qo'yish maqsadida soliq auditi, kameral va sayyor soliq tekshiruvlari, shuningdek soliq monitoringini amalga oshirish bo'yicha

mazkur jarayonlarni tartibga solib turuvchi me'yoriy-huquqiy qonunosti hujjatlarini ishlab chiqishda har qanday nazorat tadbirlari va tekshiruvlar, avvalombor qonunga bo'ysunadigan soliq to'lovchilarni qo'rqitish uchun vosita emas, aksincha qonunchilikka ixtiyoriy rioya qilishni rag'batlantirishni yo'lga qo'yishga qaratilganligi nuqtai-nazaridan ham har tomonlama puxta ishlab chiqilishi zarur;

2). Maqsadli tekshiruvlar tashkil etish uchun soliqlarni to'lashdan doimiy bo'yin tovlayotganlarni, shuningdek, huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlashning yangi va aniq mezonlarini amaliyotga keng joriy etib borish, shuningdek soliq nazorati va tekshiruvlarni imkon qadar inson omilisiz zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib amalga oshirilishini yo'lga qo'yish;

3). Soliq xavfini baholash va soliq to'lovchilarni insofililik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilish bo'yicha qonun osti hujjatini har tomonlama puxta ishlab chiqish, unda soliq xavfini boshqarishning asosiy vazifalari, soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi darajasiga ko'ra tadbirkorlik sub'ektlari segmentlarga ajratish kabilarni ko'zda tutish;

4). Soliq ma'murchiligi jarayonlarini avtomatlashtirish uchun foydalaniladigan axborot tizimlari kompleksining yagona platformasini yaratish maqsadida soliq auditining har bir qadamini avtomat tarzda qayd qiladigan va uni ijrosini nazorat qiladigan (Case Management System, Case Assessment System) tizimlarni yaratish hamda uni amalga oshirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish;

5). Qoidabuzarliklarni barvaqt oldini olishda jamoatchilik nazoratidan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, shuningdek o'tkaziladigan soliq nazorati tadbirlari va tekshiruvlarning ochiqqligi, oshkoraligi, xolisligi va shaffofligini ta'minlovchi nazorat qiluvchi organlar faoliyati ustidan mustaqil jamoatchilik nazorati tizimini yo'lga qo'yish;

6). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini har tomonlama qo'llab quvvatlash hamda ular faoliyatiga asossiz aralashuvlarga chek qo'yish, shuningdek tadbirkorlik sub'ektlarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'zda tutib jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozlari vaqtida va(yoki) turli xil favqulotda vaziyatlarda ularga qarshi kurashish hamda pandemiyalar boshqa global xavf-xatarlar davrida makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining uzluksiz ishlashini ta'minlash, yuzaga kelgan holatning iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini kamaytirish va yumshatish hamda tadbirkorlik faolligining sustlashishini oldini olish maqsadlarida tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishni to'xtatishni(moratoriy e'lon qilishni), yoxud tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini soliq auditidan o'tkazishni to'xtatish (jinoyat ishi doirasida va yuridik shaxs

tugatilishi munosabati bilan o'tkaziladigan tekshirishlar bundan mustasno) mumkinligini Qonunlarda, jumladan Soliq kodeksida to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi normalar sifatida belgilash;

7). Davlat soliq xizmati organlari tizimida, shu bilan birgalikda Davlat soliq qo'mitasiga qarashli ta'lim muassasalari o'rtasida amaliy ish jarayonida yuzaga kelayotgan munozarali hollarni inobatga olib soliq to'g'risidagi qonun-hujjatlariga takliflar kiritib borishni nazarda tutuvchi dasturiy majmualar yaratish va ulardan qonunchilikni yanada takomillashtirish amaliyotida samarali foydalanish;

8). Soliq kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga zarur hollarda samarali va ta'sirchan soliq nazorati va tekshiruvlarni ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish bo'yicha muntazam taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni yo'lga qo'yish.

O'ylaymizki, mazkur taklif va tavsiyalarimiz, yurtimizda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan xozirgi davrda soliq nazorati va tekshiruvlar jarayonida korrupsiyaning oldini olish bilan bir qatorda soliq tizimining samarali va shaffofligini ta'minlash, biznesni rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish, mamlakatimizga xorijiy investisiyalarni jalb qilish hamda tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatli himoyasini ta'minlash, biznes yuritishda mamlakatimiz imidjini yaxshilashga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz. Bu orqali esa mamlakatimiz milliy qonunchiligi yanada takomillashtirilibgina qolmasdan yurtimiz taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Kodeks(2025), O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz);

2. Farmon(2017), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7 fevral 2017 yildagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz);

3. Farmon(2017), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18 iyul 2017 yildagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5116-son Farmoni(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz);

4. Farmoyish(2018), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi 16 yanvar 2018 yildagi "Moliya, soliq va bojxona organlari faoliyatini tanqidiy o'rganilishini tashkil etish to'g'risida"gi F-5182-son Farmoyishi(Norma.uz, 2018 y);

5. Farmon(2018), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvar 2018 yildagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovasion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida”gi PF-5308-son farmoni(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz);

6. Farmoyish(2018), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi 13 fevral 2018 yildagi “Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-5214-son Farmoyishi(Norma.uz, 2018 y);

7. Qaror(2018), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26 iyun 2018 yildagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3802-son Qarori(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz);

8. Farmon(2018), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 iyun 2018 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5468-son Farmoni(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz);

9. Farmon(2018), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27 iyul 2018 yildagi “Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5490-son Farmoni(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz);

10. Qaror(2019), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10 iyul 2019 yildagi “Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4389-son Qarori(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.uz);

11. Murojaatnoma(2017), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi(Xalq so‘zi, 2017 yil 23 dekabr).

12. Murojaatnoma(2020), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi(Xalq so‘zi, 2020 yil 25 yanvar).

13. Murojaatnoma(2025), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi(Xalq so‘zi, 2025 yil 26 dekabr).